

REGISTON LC “REGISTON FANLAR OLIMPIADASI”

TANLOVI UCHUN NIZOM

1. Umumiy qoidalar

Mazkur nizom Registon o‘quv markazi tomonidan tashkil etiladigan “**REGISTON FANLAR OLIMPIADASI**” tanlovini o‘tkazish tartibi, ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablar, saralash bosqichlari, baholash mezonlari hamda g‘oliblarni aniqlash va taqdirlash tartibini belgilaydi. Tanlov **sakkizta fan** yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladi: matematika, ingliz tili, tarix, kimyo, biologiya, huquq, ona tili va adabiyoti hamda rus tili va adabiyoti.

Tanlov iqtidorli talabgorlarni aniqlash, ularning tanlagan fani bo‘yicha bilim va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish hamda talabgorlar uchun sifatli ta‘lim olish yo‘lida qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Mazkur tanlov **ikki bosqichda** o‘tkaziladi: 1-bosqich onlayn shaklda, 2-bosqich esa Registon o‘quv markazining hududiy filiallarida oflayn shaklda tashkil etiladi.

2. Tanlovdan maqsad

Tanlovni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- Talabgorlarning o‘zi tanlagan fan bo‘yicha bilim darajasini test asosida aniqlash;
- 5-11-sinf o‘quvchilari orasidan iqtidorli va salohiyatli nomzodlarni saralab olish;
- Ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, o‘z ustida ishlash motivatsiyasini rivojlantirish;
- Talabgorlarni sifatli ta‘limga yo‘naltirish va rag‘batlantirish;
- G‘oliblarni Registonda o‘zi tanlagan fan bo‘yicha o‘quv kursida ta‘lim olish uchun maxsus grantlar bilan taqdirlash.

3. Tanlov fanlari va test tili

Tanlov quyidagi **sakkizta fan** yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladi:

- **Matematika;**
- **Ingliz tili;**
- **Tarix;**
- **Kimyo;**
- **Biologiya;**
- **Huquq;**
- **Ona tili va adabiyoti;**
- **Rus tili va adabiyoti.**

Har bir ishtirokchi ro‘yxatdan o‘tish jarayonida yuqoridagi fanlardan **faqat bittasini** tanlaydi. Bir vaqtning o‘zida bir nechta fan bo‘yicha ishtirok etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sinflar bo‘yicha fanlar cheklovi. 5-6-sinf o‘quvchilari faqat **matematika** va **ingliz tili** fanlaridan birini tanlashi mumkin. 7-11-sinf o‘quvchilari yuqoridagi sakkizta fanning istalganini tanlaydi.

Ro‘yxatdan o‘tish vaqtida tanlangan fan tanlovning barcha bosqichlari uchun yakuniy hisoblanadi va keyinchalik o‘zgartirilmaydi.

Tanlov har bir fan bo'yicha **test** formatida tashkil etiladi. Test savollari fan yo'nalishi, ishtirokchilarning sinfi hamda bosqichning murakkablik darajasiga mos ravishda mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi.

Test topshirish tili. Tanlov testlari **o'zbek va rus tillarida** taqdim etiladi. Ishtirokchi ro'yxatdan o'tish jarayonida test topshirish tilini — **o'zbek** yoki **rus** tilini — o'zi tanlaydi. Tanlangan til tanlovning har ikki bosqichi uchun amal qiladi va keyinchalik o'zgartirilmaydi. Har ikki tildagi variantlar mazmuni, savollar soni va murakkablik darajasi bo'yicha bir xil bo'ladi.

Ona tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti hamda ingliz tili fanlari bo'yicha testlar tegishli fanning o'z tilida taqdim etiladi.

Fanlarning filiallar bo'yicha mavjudligi. Har bir Registon filialida o'quv kurslari tashkil etiladigan fanlar ro'yxati filialning imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Agar ishtirokchi g'olib bo'lgan fani o'ziga yaqin filialda mavjud bo'lmasa, u **o'sha filialda mavjud bo'lgan boshqa fanlardan birini** tanlab, grant asosida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Tanlov ishtirokchilari va cheklovlar

Tanlovda **5-sinfdan 11-sinfgacha** bo'lgan maktab o'quvchilari ishtirok etish huquqiga ega:

- **5-6-sinf o'quvchilari** — faqat matematika va ingliz tili fanlaridan;
- **7-11-sinf o'quvchilari** — sakkizta fanning istalganidan.

Tanlovda **barcha turdagi umumta'lim maktablari** o'quvchilari — davlat va nodavlat maktablar, ixtisoslashtirilgan hamda xususiy maktablar o'quvchilari — teng asosda qatnasha oladi.

Ishtirokchilar tanlovda faqat **bir marta** va o'zining haqiqiy shaxsiy ma'lumotlari bilan ro'yxatdan o'tishi shart. Ro'yxatdan o'tishda ishtirokchi o'z sinfini, tanlagan fanini hamda o'ziga yaqin Registon filialini to'g'ri ko'rsatishi lozim.

Bundan ko'zlangan maqsad — o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish va tanlovning chekka hududlargacha yetib borishini ta'minlash.

5. Tanlovni o'tkazish muddati

Tanlov 2026-yilning sentabr-oktabr oylarida quyidagi grafik asosida o'tkaziladi:

- **15-sentabr — 15-oktabr** — tanlov loyihasining rasmiy starti va ishtirokchilarni ro'yxatga olish jarayoni;
- **15-oktabr — 1-bosqich** (onlayn imtihon) barcha fanlar bo'yicha bo'lib o'tadi va yakunlanadi;
- **18-oktabr** — tanlovning **2-bosqichi** Registon filiallarida oflayn shaklda o'tkaziladi;
- **22-oktabr** — tanlovning yakuniy natijalari e'lon qilinadi;
- **25-oktabr** — taqdirlash marosimi bo'lib o'tadi.

Ro'yxatdan o'tish 15-oktabr kuni onlayn imtihon boshlanishiga qadar davom etadi.

Har bir fan bo'yicha imtihon boshlanish vaqti alohida belgilanadi va ishtirokchilarga oldindan ma'lum qilinadi.

6. Tanlovga ro'yxatdan o'tish tartibi

Tanlovda ishtirok etish istagida bo'lgan talabgorlar Registon tomonidan taqdim etilgan maxsus **Telegram bot** orqali ro'yxatdan o'tadi.

Ro'yxatdan o'tishda ishtirokchi quyidagi ma'lumotlarni to'liq va to'g'ri kiritishi lozim:

- Ismi va familiyasi;
- Bog‘lanish uchun telefon raqami;
- O‘qiyotgan sinfi — 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10- yoki 11-sinf;
- **Tanlagan fani** — sakkizta fan yo‘nalishidan biri;
- **Test topshirish tili** — o‘zbek yoki rus tili;
- O‘ziga yaqin Registon filiali — respublikadagi filiallardan biri.

Ro‘yxatdan o‘tish vaqtida **tanlangan filial** 2-bosqichda (oflayn imtihonda) ishtirok etish manzili sifatida qabul qilinadi. Jarayon yakunlanganidan so‘ng filialni o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ishtirokchi tomonidan **noto‘g‘ri, to‘liq bo‘lmagan** yoki **soxta** ma‘lumot kiritilishi (masalan, 8-sinf o‘quvchisining 6-sinf toifasida ro‘yxatdan o‘tishi yoki boshqa shaxs nomidan qatnashishi) aniqlangan taqdirda, ishtirokchi tanlovning istalgan bosqichida **chetlashtiriladi** va **natijalari bekor qilinadi**.

7. Tanlov bosqichlari va ularni o‘tkazish tartibi

1-bosqich. Saralash (onlayn imtihon)

Tanlovning 1-bosqichi **15-oktabr** kuni maxsus bot orqali onlayn shaklda o‘tkaziladi va quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- **30 ta** test savoli — ishtirokchi tanlagan fan va tanlagan tilda;
- imtihon davomiyligi — **60 daqiqa**;
- maksimal ball — **100 ball**.

1-bosqich yakuniga ko‘ra, **56 va undan yuqori ball** to‘plagan ishtirokchilar **2-bosqichga** yo‘llanmani qo‘lga kiritadi.

2-bosqich. Filialdagi oflayn imtihon — yakuniy bosqich

Tanlovning 2-bosqichi **18-oktabr** kuni Registon o‘quv markazining hududiy filiallarida **oflayn shaklda** o‘tkaziladi. Ishtirokchilar ro‘yxatdan o‘tish jarayonida **o‘zlari tanlagan** filialdagi imtihonda qatnashadi. Bosqich quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- **30 ta** test savoli — ishtirokchi tanlagan fan va tanlagan tilda;
- imtihon davomiyligi — **60 daqiqa**;
- maksimal ball — **100 ball**;
- grant sovrindori bo‘lish uchun eng kam ball: **1-3-o‘rinlar uchun 71 ball, 4-20-o‘rinlar uchun 50 ball**;
- g‘oliblar **har bir filial va har bir fan kesimida alohida** aniqlanadi.

2-bosqich natijalari **22-oktabr** kuni Registonning rasmiy sahifalari, maxsus platformasi yoki ishtirokchilarning shaxsiy kabinetlari orqali e‘lon qilinadi.

8. Baholash tartibi va mezonlari

Tanlovning har ikki bosqichida ishtirokchilarga o‘zi tanlagan fan bo‘yicha **30 ta** test topshirig‘i taqdim etiladi. Savollar murakkablik darajasiga ko‘ra uch blokka bo‘linadi va har bir blok savollari turlicha baholanadi:

- **1-10-savollar** — har biri **2,8 ball** (jami 28 ball);
- **11-20-savollar** — har biri **3,1 ball** (jami 31 ball);
- **21-30-savollar** — har biri **4,1 ball** (jami 41 ball).

Jami: **30 ta savol — maksimal 100 ball**.

Baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

- noto‘g‘ri yoki belgilanmagan javob uchun ball berilmaydi va ayirilmaydi;
- savollarning murakkablik darajasi;
- to‘plagan umumiy ball.

Ball taqsimoti ishtirokchilarga imtihon boshlanishidan oldin ma'lum qilinadi. Har bir fan bo'yicha test topshiriqlari alohida ishlab chiqiladi va baholanadi. **Turli fanlar ishtirokchilarining ballari o'zaro solishtirilmaydi** — reyting faqat bir xil fan doirasida tuziladi. O'zbek va rus tilidagi variantlar bo'yicha natijalar yagona reytingda hisobga olinadi.

Ballar teng kelib qolgan holatlarda g'olibni aniqlash:

- Zarurat tug'ilganda, g'olib maxsus komissiya tomonidan tashkil etiladigan **qo'shimcha (qayta) test** orqali aniqlanadi;
- Ushbu mezon natija bermagan taqdirda, tashkilotchilar tomonidan qo'shimcha mezonlar asosida yakuniy qaror qabul qilinadi.

Tashkilotchilarning yakuniy qarori qat'iy hisoblanadi.

9. G'oliblarni aniqlash va mukofotlash tartibi

Tanlov yakunida g'oliblar **2-bosqich** (oflayn imtihon) natijalariga asosan, o'rin uchun belgilangan eng kam ballni to'plagan ishtirokchilar orasidan aniqlanadi.

G'oliblar **har bir Registon filiali va har bir fan kesimida alohida** belgilanadi. Ya'ni ishtirokchi butun respublika miqyosida emas, balki **o'zi tanlagan filialda, o'zi tanlagan fan bo'yicha** qatnashuvchilar bilan raqobat qiladi.

Har bir filialda, har bir fan bo'yicha reyting bo'yicha eng yuqori natija ko'rsatgan **20 nafar** ishtirokchi grant sovrindori etib belgilanadi va ular o'sha filialda, o'sha fan bo'yicha **bitta o'quv guruhini** tashkil etadi. Grantlar quyidagi tartibda taqsimlanadi:

- **1-o'rin — 100% grant** asosida ta'lim, eng kam **71 ball**;
- **2-o'rin — 75% grant** asosida ta'lim, eng kam **71 ball**;
- **3-o'rin — 50% grant** asosida ta'lim, eng kam **71 ball**;
- **4-10-o'rinlar — 30% grant** asosida ta'lim, eng kam **50 ball**;
- **11-20-o'rinlar — 20% grant** asosida ta'lim, eng kam **50 ball**.

Agar biror filialda biror fan bo'yicha belgilangan eng kam ballni to'plagan ishtirokchilar soni 20 nafardan kam bo'lsa, grantlar faqat shu shartni bajargan ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi. Bo'sh qolgan o'rinlar boshqa filial yoki boshqa fanga o'tkazilmaydi.

Agar 1-, 2- yoki 3-o'rinni egallagan ishtirokchi **71 balldan kam** to'plagan bo'lsa, unga tegishli grant berilmaydi va u umumiy reyting bo'yicha keyingi (50 ball chegarasidagi) grant toifasiga o'tkaziladi.

Taqdim etilgan grantlar ishtirokchi tanlagan fan bo'yicha **2 oylik** o'quv kursida ta'lim olish uchun beriladi va **2027-yilning 10-yanvar kunigacha** amal qiladi. Ushbu muddatdan tashqarida grantlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Grantning fan va filialga bog'liqligi. Ishtirokchi tanlovning imtihon bosqichida qaysi filialni va qaysi fanni tanlagan bo'lsa, g'olib bo'lgan taqdirda grant asosidagi ta'limni **aynan o'sha filialda** oladi. Grantni boshqa filialga yoki boshqa shaxsga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Istisno — mazkur nizomning 3-bo'limida nazarda tutilgan holat: agar g'olib bo'lgan fan tanlangan filialda mavjud bo'lmasa, ishtirokchi o'sha filialdagi mavjud fanlardan birini tanlab, grant asosida ta'lim olishi mumkin.

Registon o'quvchilari uchun cheklov. Registon o'quv markazida hozirda tahsil olayotgan o'quvchilar g'olib bo'lgan taqdirda, ular uchun har bir filialda, har bir fan kesimida jami **3 ta grant** ajratiladi:

- **1 ta 100% lik** grant;
- **1 ta 75% lik** grant;
- **1 ta 50% lik** grant.

Qolgan toifalarda (30% va 20%) Registon o'quvchilari uchun cheklov qo'llanilmaydi. Qolgan grant o'rinlari reyting bo'yicha boshqa ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.

Belgilangan barcha turdagi mukofotlar (grant va boshqalar) **pul ekvivalentiga almashtirib berilmaydi.**

10. Taqdirlash marosimi

Tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi **25-oktabr** kuni o'tkaziladi. Marosimning aniq vaqti va manzili natijalar e'lon qilingandan so'ng tashkilotchilar tomonidan alohida ma'lum qilinadi.

Taqdirlash marosimida quyidagi ishtirokchilar qatnashishi mumkin:

- Tanlov g'oliblari;
- G'olib o'quvchilarning ota-onalari yoki yaqinlari;
- Ularning ustozlari va maktab vakillari;
- Registon o'quv markazi rahbariyati va xodimlari;
- Hamkor tashkilot vakillari hamda taklif etilgan faxriy mehmonlar.

G'oliblarga diplom, sertifikat, grant va belgilangan mukofotlar tantanali ravishda topshiriladi.

11. Ishtirokchilar uchun muhim eslatmalar

Tanlov ishtirokchilari quyidagilarga amal qilishi shart:

- tanlov nizomi bilan to'liq tanishib chiqish;
- ro'yxatdan o'tishda faqat to'g'ri ma'lumot kiritish;
- o'zi tanlagan fan, test tili va filialni to'g'ri belgilash;
- belgilangan sana va vaqtlarda imtihonlarda ishtirok etish;
- tanlov jarayonida halollik va intizomni saqlash.

Quyidagi holatlarda ishtirokchi tanlovdan chetlashtiriladi:

- soxta ma'lumot kiritish;
- boshqa shaxs nomidan qatnashish;
- bir nechta fan bo'yicha takroran ro'yxatdan o'tish;
- qoidabuzarlik qilish;
- imtihon jarayoniga noqonuniy aralashish;
- test jarayonida yordamchi vositalardan ruxsatsiz foydalanish.

12. Apellyatsiya tartibi

Agar ishtirokchi o'z natijasidan norozi bo'lsa, natijalar e'lon qilingandan so'ng **24 soat ichida** tashkilotchilarga apellyatsiya murojaatini yuborishi mumkin.

Apellyatsiya murojaatlari maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi va u bo'yicha chiqarilgan qaror yakuniy hisoblanadi.

13. Tashkilotchining huquqlari

Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

- tanlov sanalari yoki texnik tartibiga zarurat bo'lsa o'zgartirish kiritish;
- filiallar bo'yicha fanlar ro'yxatini va grant o'rinlari sonini belgilash;
- qo'shimcha qoidalar belgilash;
- qoidabuzarlik aniqlangan ishtirokchini tanlovdan chetlashtirish;
- tanlov natijalari, foto va video materiallardan axborot-ma'rifiy hamda marketing maqsadlarida foydalanish.

14. Yakuniy qoidalar

Mazkur nizom tanlovning rasmiy tartibga soluvchi hujjati hisoblanadi.

Tanlovda ro'yxatdan o'tgan har bir ishtirokchi ushbu nizom shartlariga rozilik bildirgan hisoblanadi.

Nizomda nazarda tutilmagan holatlar bo'yicha qaror tashkilotchilar tomonidan amaldagi ichki tartib-qoidalarga muvofiq qabul qilinadi.